Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 94

MUZEYLAR – MADANIY MEROSNI SAQLASHDA ASOSIY VOSITA

Abdumutal Ahadjonovich Qambarov*
Farg‘ona davlat universiteti professori, falsafa fanlari doktori (DSc)
✉ qambarovabdumutal@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada muzeylarning moddiy va ma’naviy madaniy merosni saqlash, o‘rganish hamda kelajak avlodlarga yetkazishdagi o‘rni yoritiladi. O‘rta Osiyoda noyob qo‘lyozmalar, kutubxonalar va tarixiy ashyolarni to‘plash an’analari, mustamlakachilik davrida madaniy boyliklarning olib ketilishi hamda Turkistonda dastlabki muzeylarning tashkil topishi tarixiy misollar asosida bayon etiladi. Shuningdek, XX asrda va mustaqillik davrida O‘zbekiston muzeylari faoliyatining rivojlanishi, ularning yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar

muzey, madaniy meros, muzeyshunoslik, tarixiy yodgorlik, qo‘lyozma, kolleksiya, kutubxona, O‘rta Osiyo, Turkiston, milliy qadriyatlar.

DOI: 10.5281/zenodo.23281783

KIRISH

O‘rta Osiyo xalqlari qadimdan Yaqin Sharq va G‘arb davlatlari bilan iqtisodiy va madaniy aloqalar o‘rnatib kelganlar. O‘rta Osiyo zaminida o‘tgan mashxur “Buyuk ipak yo‘li” Sharqiy Osiyo va Hindistonni O‘rta yer dengizi mamlakatlari bilan bog‘lagan. Bunday jozibali o‘lka biri bo‘lgan Turkiston doimo chet el istilochilarining diqqat markazida bo‘lgan. Shu sababli O‘rta Osiyoning tarixiy qismati juda og‘ir kechgan. Bosqinchilik urushlari, mahalliy hukmron doiralarning o‘zaro ichki ziddiyatlari tufayli ham to‘s-to‘polonlar tez-tez yuz berib turgan. Doimiy qirg‘inlar tufayli betakror saroylar, go‘zal shaharlar, noyob inshootlar vayronaga aylanib, yig‘ilgan bebaho madaniy boyliklar g‘oliblar o‘ljasi bo‘lgan.

Muxammad Narshaxiyning guvoxlik berishicha, arablar Poykant janglaridan xisobsiz tillo, kumush buyumlar, qurol aslahalar, qimmatbaxo kiyim-kechaklardan iborat katta o‘lja bilan qaytganlar. Arab istilosi davrida xazina to‘plash, madaniy boylik jamg‘arish ishlarida durustroq siljish yuz bermagan.

IX-X asrlarda O‘rta Osiyoda mustaqil Somoniylar davlatining barpo bo‘lishi bu borada bir qator o‘zgarishlarni amalga oshiradi. Bu davrda saroy moddiy boyliklaridan tashqari ma’naviy boyliklar, jumladan, katta kutubxonalar, arxivlar tashkil etila boshlandi. Tarixning guvoxlik berishicha, X asrga kelib, Buxoro va Sheroz amirliklari kutubxonalarida insoniyat yaratgan ko‘plab nodir kitoblar bo‘lgan. G‘aznaviy sulolasining asoschisi Muxammad G‘aznaviy xam juda ko‘p kitoblar to‘plagan. Xorazmshoh Muxammad mamlakatning ravnaqi yo‘lida katta ishlar qiladi. Go‘zal saroylar, qasrlar, maqbaralar qurdiradi. Nodir moddiy-ma’naviy boyliklar to‘planadi, ammo bu betakror san’at va madaniyat yodgorliklari, butun shahar mo‘g‘ul bosqinchilari istilosi tufayli nodir moddiy va ma’naviy boyliklar yo‘qoladi. Kutubxonalar yondiriladi, madaniy xayot 100 yillar orqaga chekinadi.

“Xalqimiz tarixida insoniy kamoloti va ijtimoiy faoliyati bilan dovruq qozongan, millatimiz faxri bo‘lmish ulug‘ zodlar benixoya ko‘p. Ammo ular qatorida yulduzlar aro quyoshdek charaqlab turgan buyuk

bir zod borki, u Vatanimiz kechmishi, buguni va ertasida behad yuksak o‘rin tutudi. Ul muhtaram inson Sohibqiron Amir Temur hazratlaridir”[1].

Amir Temur tomonidan yagona markazlashgan davlat tuzilishi va Samarqandning davlat poytaxti qilinishi ham boyliklarning to‘planishiga va yig‘ilishiga katta sabab bo‘ladi. Oradan 150 yil o‘tgandan so‘ng O‘rta Osiyoda fan va madaniyat qayta kurtaklay boshladi. Ayniqsa, Me’moriy yodgorliklar, maqbaralar, masjid-madrasalar, saroylar qayta quriladi. Shuningdek, Amir Temur zabt etgan mamlakatlardan qadimiy qo‘lyozmalar, xon, amirlarga tegishli yozishma va elchilik xujjatlari, musulmon dunyosining muqaddas kitobi bo‘lgan “Usmon Qur’oni”ning asl nusxasini Samarqandga olib kelinadi. Dunyoga mashxur Temur kutubxonasini barpo etadi. Temurning sevikli nabirasi, Sharqning buyuk astronom olimi Mirzo Ulug‘bek bu kutubxonani yanada boyitadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Alisher Navoiyning juda katta, nodir, qo‘lyozmalarga boy shaxsiy kutubxonasi bo‘lgan. Bu kutubxonadan tarixchi Xondamir, musavvir Bexzod va boshqa olimu fozillar foydalanganlar.

Buxoro – Xiva xonliklarida xam nodir qo‘lyozmalar kollektsiyasini to‘plab saroy va shaxsiy kutubxonalar barpo etish odat bo‘lgan edi. Xiva xoni Muxammad Rahimxon II (Feruz taxallusi bilan mashxur shoir 1865-1910) kutubxona barpo etib, uni dunyoning har chekkasidan keltirilgan nodir qo‘lyozmalar bilan boyitib boradi. O‘rta Osiyoda birinchi bo‘lib Xivada litografiya tashkil qilib, noshirlik san’atini rivojlantiriladi. XIX asrda Xiva xonligi o‘zining kitob xazinasi bilan dunyoga mashhur bo‘ladi. Bu yerda arab, fors-tojik tillaridagi qo‘lyozmalar o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

Qo‘qon xonligida xam boy kutubxona bo‘lib, nodir qo‘lyozmalarga ega bo‘lgan. Bu davrda O‘rta Osiyoning yirik shaxdrlari Farg‘ona, Buxoro, Qo‘qon, Toshkent va boshqa shaxarlarda kitob ixlosmandlari bo‘lib, ular juda katta mablag‘ sarflab nodir qo‘lyozmalarni yiqqanlar. Masalan: Toshkentda Jo‘rabekning shaxsiy qo‘lyozmalar kollektsiyasi mashxur bo‘lgan (1906 yilda o‘ldirilgan.), Boqijon boy, Qozi Muxiddin, Andijondagi Dukchi Eshon kutubxonalari, Buxoroda yashagan Qozi Sharifjon Maxzun Ziyoning kutubxonasi va undagi qo‘lyozmalar o‘zining nodirligi va qadimiyligi bilan mashhur bo‘lgan. Shunday qilib, yuqoridagi faktlar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, diyorimizda moddiy va ma’naviy yodgorliklarni to‘plash asriy an’ana bo‘lib, milliy xususiyatlarga, islom dini urf-odatlarga rioya qilgan xolda amalga oshirilgan. O‘rta Osiyolik buyuk allomalarning qomusiy, shox asarlari XII asrdan Ovrupa mamlakatlarida lotin tiliga tarjima qilinishi, dunyo fani rivojiga katta xissa qo‘shdi. Sharq mamlakatlarida esa, bu shoh asarlar kutubxonalarning oltin fondiga aylandi.

1831-1833 yillarda Ost-Indiya kompaniyasining leytenanti Aleksandr Byorns Buxoroda yashab, qadimiy tylla va kumush tangalarni yig‘adi va 200 dan ortiq nodir numizmatika kollektsiyasini barpo etib, Britaniya muzeyiga taqdim etadi. Hozirda bu kollektsiya bebaho hisoblanadi.

Rus imperiyasi ham bu boradagi keng ko‘lamdagi ishlarini XIX asrga kelib juda avj oldiradi. Jumladan, Peterburgdagi Osiyo muzeyining direktori, sharqshunos olim X.D.Fren 1834 yil O‘rta Osiyodan izlab topilishi mumqin bo‘lgan Sharq mualliflariga mansub “Yuzta asarning xronologik ro‘yxati”ni tuzib chiqdi.

Orenburg bojxonasiga savdogarlarni jo‘natish va ko‘rsatilgan qo‘lyozmalarni Peterburgga yuborish xaqida farmoyish beriladi, bu vazifa buyurganidan ham a’lo darajada bajarilib, Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari tarixi geografiyasiga doir qimmatli qo‘lyozmalar Peterburgga oqib kela boshladi. Bu O‘rta Osiyo moddiy va ma’naviy yodgorliklarining olib kelinishining birinchi bosqichi sifati qayd etiladi.

1869 yili Samarqandda Turkistonning birinchi general-gubernatori K. P. Fon Kaufman (1867-1882 y) musulmon dunyosining muqaddas kitobi VII asr Kufa qo‘lyozma yodgorligi “Usmon Qur’oni”ni Peterburg imperatoriga jo‘natadi. Shuningdek, 1870 yili Buxoro amiri fuqarolari qo‘zg‘olonini bostirish baxonasidagi xarbiy yurishda Shahrisabz va Kitob beklariga qarashli joylardan 97 jild qadimiy qo‘lyozmalar ham tortib olinadi.

Madaniy va ma’naviy yodgorliklarni ilmiy asosda yig‘ish 1873 yili Xiva xonligiga yurish oldidan juda mukammal tashkil qilindi. Bu ishga Peterburgdagi rus geografiya jamiyati bosh qosh bo‘ldi. Yirik sharqshunos olim P. I. Lerx xonlikda nimalarga e’tibor berish va yig‘ish haqida mukammal dastur ishlab chiqib, Turkistonga yuboradi. Bu paytda Xiva xoni shoshilinch ravishda qochgan bo‘lib, saroy bosqinchilar ixtiyorida qolgan edi. Xon saroyi va undagi xazinalar talon-taroj etiladi, qo‘lyozma va hujjatlar Peterburg imperatori kutubxonasiga

[1]Qarang: O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning temuriylar tarixi davlat muzeyining ochilish marosimida so‘zlagan nutqidan. 1996-yil, 18-oktyabr

jo‘natiladi. Xiva xoni taxti esa 1874 yilda Moskvadagi qurol aslaxa palatasiga topshirildi. Bu taxtni ilmiy tavsif etgan rus olimi V.V.Stasov ta’kidlashicha, - “Bu taxt Xiva xunarmand ustalarining maxorat cho‘qqisi, ya’ni metallga gul solish xunarining betakror mahsuli” bo‘lgan. Xon saroyidan olingan qimmatli o‘ljalar ichida 200 ta pul yasaydigan qoliplar, 25 pud tilla va kumush, xon muxri, 200 dan ortiq qadimiy tangalar, behisob qimmatli toshlar va tillodan yasalagan zargarlik buyumlari va kiyim-kechaklar bo‘lgan. Bu narsalar Peterburg va Moskva muzeylariga Ermitaj, Tsarskoselskiy arsenal, Moskva politexnika muzeyi, etnografiya muzeyi va boshqa joylarga jo‘natildi. Bular butun dunyodan keltirilgan san’at durdonalari edi. Behisob Xitoy chinni idishlari, Eron, turkman ipak gilamlari, Kashmir ro‘mollari, ajoyib chopon va qurol aslahalardan, bexisob zargarlik buyumlaridan iborat edi. Faqat XVII-XVIII-XIX asrga oid Xitoy chinnisidan yasalgan buyumlar 1000 dan ortiq bo‘lib bu narsalar rus ofitserlariga o‘lja bo‘ldi.

1875-1876 yili Qo‘qonga yurish bo‘ldi, xonlik tugatilib, xonlik xazinasi, undagi qo‘lyozmalar qimmatli mis, tilla, kumush buyumlar, qurol aslahalar Peterburgga jo‘natildi. Qo‘qondan olingan misgarlik, zargarlik buyumlari shu vaqtgacha yirik muzeylar – Ermitaj, Britaniya muzeyi va boshqa muzeylarning ko‘rgazmalarida ko‘rsatilmoqda.

Peterburgdan sharqshunos olimlar O‘rta Osiyoga doimiy va

uzoq muddatli xizmat safarlari kelib maxalliy kollektsionerlar va sharqshunos olimlar yordamida har taraflama tekshirish o‘tkazar edilar. Bu tekshirishlarning natijasi o‘laroq, ular ixtiyorida qadimiy nodir yodgorliklar, qimmatli manbalar to‘plangan. Bu noyob manbalar Peterburg muzey va kutubxonalariga jo‘natilgan. Shu maqsad yo‘lida 1867 yildan to 1917 yilgacha Turkistonda 15 tadan ortiq ilmiy jamiyat va to‘garaklar ishlab turgan.

1898 yilda Andijon qo‘zg‘olonining sardori Dukchi Eshon kutubxonasi musodara qilindi. Undagi 194 nodir qo‘lyozma tezlikda Peterburgga jo‘natiladi. Rus tarixining namoyandalari hamda Peterburg, Moskva muzeylaridan bexisob mutaxassislar Turkistonda olib borgan ilmiy va yodgorliklarni to‘plash ishlarida maxalliy muxlislarga tayanadilar. Masalan: samarqandlik Mirza Qosimov, toshkentlik savdogar Akrom Asqarov, samarqandlik Mirza Abdulla Buxoriy, etnograf Shoximardon Ibrohimov, samarqandlik Abu Said Maxsum arxeolog Olim Turdi Mirg‘iyosovlar shular jumlasidandir.

1876 yil birinchi bo‘lib Toshkent muzeyi (xozirgi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi) ochiladi. Shu paytdan e’tiboran, O‘rta Osiyoda bosh muzeyning mavjudligi rasman tan olindi. 1896 yili Samarqand, 1898 yili Yettisuv, 1899 yili Farg‘ona va Kaspiy orti (Ashxobot) o‘lka muzeylari barpo etiladi.

XIX asrda Turkiston o‘lkasida dastlabki muzeylarning yuzaga kelishi o‘lkada madaniyatning rivojiga katta qo‘shdi.

1917 yil oktyabr Peterburgadagi bolsheviklar davlat to‘ntarilishi yo‘li bilan xokimiyat tepasiga keldilar va mazkur sho‘rolar xukumati mamlakatdagi barcha moddiy-madaniy va ma’naviy boyliklarga da’vogarlik qila boshladi. Natijada oradan ko‘p vaqt o‘tmasdan milliylashtirish shiori ostida butun mamlakat bo‘ylab moddiy va madaniy boyliklarni qonuniy egalaridan zo‘ravonlik yo‘li bilan tortib olish va qarshilik ko‘rsatgan mulkdorlarni qatag‘on qilishga kirishiladi. Bu xol muzeylar soxasida xam ro‘y beradi.

Muzeydan tashqari ko‘rgazmalarni yaratish bobida xam muzeylar aktiv faoliyat ko‘rsatdilar. Ma’ruzaviy targ‘ibot kuchaydi, respublika muzeylari axoli o‘rtasida tashviqot-targ‘ibot ishlarini olib boruvchi haqiqiy markazlarga aylantiriladi. Ular ommani g‘oyaviy-siyosiy tarbiyalash soxasida katta ishlarni amalga oshirdilar.

1963 yili Ulug‘bek muzeyi, 1964 yili S.Ayniy muzeyi, 1964 yili Y.Oxunboboev muzeyi, 1967 yili Xamza muzeyi, 1970 yili Lenin muzeyi, 1972 yili Farg‘onada U.Yusupov muzeyi, 1974 yili Yangiyo‘lda U.Yusupovning uy muzeyi kabi memorial muzeylar ochiladi.

O‘tgan asrning 60-70-yillardagi muzeyshunoslik O‘zbekistonda muzey tarmoqlarini keng ko‘lamda kengaytirish ishlarining avj olganligi, moddiy-texnika bazasining tubdan yaxshilanganligi bilan xarakterlanadi. O‘zbekiston muzeylari chiroyli, maxsus qurilgan binolarga ega bo‘la boshladilar. Masalan, Davlat san’at muzeyi yangi, shinam binoda o‘zining ikkinchi umrini boshladi.

Amaliy san’at muzeyi uchun yangi bino tiklandi. Turkiston xarbiy okrugi tarixi muzeyi esa O‘rta Osiyo qurolli kuchlarining qudratini va jangovor o‘tmishi tarixini ko‘rsatuvchi binoda yangi davrini boshladi.

O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi esa XIX asr me’morchiligining yodgorligi, tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan binoga joylashdi. Marg‘ilonda Y.Oxunboboev memorial muzeyi uchun uch qavatli bino, Samarqandda Afrosiyobdagi tarix muzeyi va respublika madaniyat va san’at tarixi muzeyi uchun maxsus bino quriladi.

1959 yili Chirchiq, 1960 yili esa Angren shaxar o‘lkashunoslik muzeyi, keyingi yillarda yana bir qator shaxar va rayon o‘lkashunoslik muzeylari tashkil etildi.

1973 yilda O‘zbekistonda turli yo‘nalishlardagi 30 ta muzey shu jumladan, 4 tarixiy, 4 memorial va 15 o‘lkashunoslik muzeyi faoliyat olib borgan bo‘lsa, shundan, Toshkent viloyatida 10 ta, Samarqand va Farg‘onada 5 tadan, Andijonda 4 ta muzey ish olib borgan. 1980 yilga kelib esa respublikada muzeylar soni 33 taga yetadi, tomoshabinlar soni xam 3,7 mln. kishiga ko‘payadi.

O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi Markaziy Osiyodagi eng qadimiy muzeylardan biri hisoblanadi. U 1876 yilda tashkil etilgan bo‘lib, uning faoliyati 200 yilga yaqin qolmoqda. Muzey fondida 350 mingdan ortiq eksponat – mintaqa tarixini eng qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha aks ettiruvchi arxeologik topilmalar, numizmatika to‘plamlari, qo‘lyozmalar, etnografik materiallar saqlanadi.

2017 yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, Madaniyat vazirligi tizimida 41 ta muzey va ularning 76 ta filiallari bo‘lib, Ana shu muzeylarda, yordamchi fondlar birga, bir million 736 mingdan ziyod eksponat mavjud[2]. Bugungi kunda O‘zbekistonda jami 137 ta muzey (filiallari bilan birgalikda) faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu muzeylarning 114 tasi davlat muzeylari, muzey-qo‘riqxonalar va uy-muzeylari hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, “Yoshlarimiz kelishsin, ko‘rishsin, qanday mashhur ajdodlari, zamondoshlari borligini bilishsin, ular bilan fahrlanishni, g‘ururlanish o‘rganishsin. O‘tmishini ulug‘laydigan, bugunini e’zozlaydigan millatning ertangi kuni hamisha porloq bo‘ladi”[3]. yuqorida aytib o‘tgan barcha fikrlarimiz yangi O‘zbekiston yoshlarini axloqiy-estetik tarbiyalashda, shuningdek, milliy madaniy merosimizni o‘rganishlarida va barcha moddiy va milliy ma’naviy boyliklarni kelajak avlodga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning temuriylar tarixi davlat muzeyining ochilish marosimida so‘zlagan nutqidan. 1996-yil, 18-oktyabr

2. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU. 2018. -B. 199

3. Nishonova K (tuzuvchi). Muzey – xalq tarixining ko‘zgusi. –Toshkent: 2011. –B. 5

[2]Qarang: Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU. 2018. -B. 199

[3]Nishonova K (tuzuvchi). Muzey – xalq tarixining ko‘zgusi. –Toshkent: 2011. –B. 5